



SAMARQAND JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING MILLIY MUSTAQILLIKNI MUSTAHKAMLASHDAGI AHAMIYATI

Xayitboyeva Ozoda Erkinjon qizi

*Aniq va ijtimoy fanlar Universiteti Tarix fakulteti 2- kurs magistr talabasi
xayitboyevaozoda329@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand jadidlarining ma'naviy merosi va uning milliy mustaqillikni mustahkamlashdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon kabi ma'rifatparvarlarning ta'lim, matbuot, teatr va adabiyot sohasidagi faoliyati orqali milliy ong, o'zlikni anglash va istiqloq g'oyalarini shakllantirishdagi hissasi yoritiladi. Maqolada jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy asoslari, uning Turkiston taraqqiyotidagi ahamiyati hamda zamonaviy O'zbekiston jamiyatida milliy qadriyatlar, ma'naviy tiklanish va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashdagi dolzarbligi ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va manbashunoslik usullaridan foydalanildi. Natijada Samarqand jadidlarining ma'naviy merosi nafaqat o'z davrida milliy uyg'onish harakatining g'oyaviy asosini yaratgani, balki bugungi kunda ham milliy mustaqillik mafkurasini boyituvchi muhim manba sifatida xizmat qilayotgani asoslab beriladi. Mazkur maqola jadid merosini chuqur o'rganish va uni yosh avlod ongiga singdirish orqali mustaqil davlatning ma'naviy poydevorini yanada mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Turkiston o'lkasi, Samarqand jadidlari, ziyolilar qatlami, milliy g'oya, ta'lim islohati, gazeta va jurnallar.

Jadid ma'rifatparvarlarining qiziqish va faoliyat doirasi g'oyatda kengdir, ulardan eng asosiy maqsadlari esa, xalqni ma'rifat yo'li orqali mustaqillikka olib chiqish edi. Sababki, ma'rifatsiz, o'z milliy g'oyalar tarixi va insoniy haq-huquqlari haqida hech narsa bilmasdan yashash, xalqni mustamlakachilik sharoitida yashash bu – bevosita xalqning irodasini bukib tashlaydi. Mana shuning sababidan ham jadidlar o'z zamonasining yangi ko'rinishdagi maktablar ochib, millat yoshlarini qisqa muddatlarda tarbiyalab xalq ommasining savodini chiqarish choralarini ko'rib bordilar. Aynan, jadidlar milliy matbuotga asos solib, gazeta va jurnallar chop etdilarki, bu yangi davr g'oyalarini tezda targ'ib etuvchi va xalqning yopiq ko'zlarini ochuvchi asarlar yozdilar. Demak, jadidchilik ma'rifatparvarlikdan kuchli ko'tilgan siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgandi. Jadidchilik o'zining shakllanish tarixida ikki bosqichni bosib o'tgan: - birinchisi bu -



ma'rifatparvarlik bosqichi hisoblandi; - ikkinchi bosqichi esa bevosita - siyosiy bosqichga ko'tarildi.

Bunda, asosan bir tomondan mustamlakchilik siyosatiga qarshi kurashishar, ikkinchi tomondan esa musulmon mutaassibligiga qarama-qarshi ravishda diniy va dunyoviy ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdilar. Shariat qoidalari, Qur'oni karimni yaxshi bilganlari uchun ham din peshvolari orasidagi qoloqlikka, "Taraqqiyot islomga zid"dir - degan sun'iy o'ylab topilgan qarashlarga qarshi kurashdilar. Xususan, Mahmudho'ja Behbudiy 1912-yilda "Turkistonda maktab jarida", "Ehtiyoji millat", "Yoshlarga murojaat" kabi dolzarb bo'lgan maqolalarida musulmon maktablarining endilikda davr talabiga javob bera olmasligi, shu sababli "usuli jadid" maktablarining nechog'lik ehtiyojga molik ekanini ta'kidlab, "Dunyoda turmak uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur; zamonaviy ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur"⁷⁹, – deb ta'kidlagan edi. "Shuning bilan bir qatorda mahalliy ziyolilar matbuotda an'anaviy maktab va madrasalarda ta'lim-tarbiyaning ahvoli haqida so'z yuritib, ularning davr talablariga mos emasligi haqidagi fikrlarni ta'kidlash bilan birga mavjud ta'lim tizimini isloh etish zarurligini asoslashgan"⁸⁰, edi. "Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiyaning samarasizligi"⁸¹, "islom dini va aqidalarini biluvchi mutaxassislarni tayyorlashdek tor maqsadlarga yo'naltirilganligi"⁸² haqidagi fikrlarni rus mualliflari asarlarida ham uchratishimiz mumkin"⁸³.

Hoji Muinning "Yoshlarga murojaat" sarlavhali maqolasida "...ko'pdan beri jarida va majallalarda o'qub va bilib kelmakdursizki, har millatning taraqqiysi eng avval muntazam maktablardan boshlanur"⁸⁴, – deb millat ma'naviy kamoloti to'g'risida fikr yuritish ekan, bu fikrlarini ilm o'rganishni ulug'lovchi maktab deb tushuntirishga harakat qiladi. Hoji Muin ta'kidlaydiki, "biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko'rib muhofaza qilmoqchi bo'lsak, eng avvalo saodat eshiki bo'lgan maktabimizni zamonaga muvofiq isloh qilsak"⁸⁵,

⁷⁹ Беҳбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 199.

⁸⁰ Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: F.Ғулом, 2009. – Б. 114-115.

⁸¹ Наливкин В.П. Школа у туземцев Средней Азии. Речь, произнесенная на годичном акте Туркестанской Учительской Семинарии 31 мая 1889 г. – Тошкент, 1889 // Туркестанский сборник. Т. 418. – С. 39.

⁸² Остроумов Н.П. Народное образование. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае. – Тошкент, 1889 // Туркестанский сборник. Т. 418. – С. 53.

⁸³ Қодиров Н.Н. Тўркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи (1867-1917 йй.). Монография.

⁸⁴ Ҳожи Муин. Ёшларга муожаат. Самарқанд газетаси, 1913 йил, 34-сон.

⁸⁵ Ҳожи Муин. Ёшларга муожаат. Самарқанд газетаси, 1913 йил, 34-сон.



shundagina millatni saodatli va kuchli qilishga qodir bo'lgan ijtimoiy qonunlarni ishlab chiqish mumkinligini ta'kidlaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, milliy ta'lim-tarbiya tizimidagi muammolarni hal etishda tanqidiy fikrlash ya'ni eskirgan dunyoqarashdan voz kechish, taraqqiyotga xizmat qilmaydigan mafkuraviy tarbiyani keskin tanqid qilish, zamonaviy maktab o'quvchilari qiyofasini yaratishni Hoji Muin aytganidek, ushbu "murojaatnoma"dan maqsadim bo'lgan ikki nimarsani muhtaram yoshlarimizg'a xayrixohona suratda arz etarman: – Emdi muallim yetishdirmoq, maktab ko'payturmoq yo'lida qo'limizdan kelguncha sarfi g'ayrat etayluk. Muallimlikka qobiliyatli va mustaid bo'lgan yoshlarimizg'a muovanat va rahbarlik qilib turaylik. Maktab, ta'lim, kitob va birgalashib ish boshqarmoq to'g'risida Toshkand muallimlaridan ibrat olaylik,⁸⁶ – deb milliy ta'lim falsafasining asosini rivojlantirishga davat etgan.

Jadidlar yoshlarga murojaat qilib, millatning taraqqiyoti uchun kurashishga chaqiradi va ularni millat taraqqiyotining poydevorlaridir, – deb tushundilar. Ular aynan shu masalada yoshlarga murojaat qilar ekanlar, "Turkistonning taraqqiyoti va ravnaqi zamonaviy ta'lim va tarbiyasini beradigan maktab va oliy dargohlarda tahsil olish, islohotlarni amalga oshirish g'ayratli yoshlarning harakati ma'rifatparvarligi, shijoati soyasida vujudga keladi deydi. Shuning uchun ham har bir millat o'zida mavjud bo'lgan mushkul ishlarda faqatgina yolg'iz iqtidorli yoshlarimizning ilm salohiyatidan umidvormiz va ulardan yordam so'raymiz! – deb yozadilar. Jadid maktabi, ilmning beshigidir. Bu beshikdan keyin albatta, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining bo'lishi va yoshlar tahsilni shu tarzda, zanjirsimon davom ettirishlari zarur"⁸⁷, – deb tushungan edi.

"Vojid Ali o'quvchi-talabalarining vazifalari, burchlari nimalardan iborat ekanligini ham alohida ta'kidlaydi:

- o'quvchi-talaba muallim-ustoz huzuriga kelganda, odob bilan salomlashib, o'z o'rnida o'tirishi, kitob mutolaasi bilan mashg'ul bo'lishi kerak. Bu jarayonda u o'qishdan boshqa har qanday xayollarni o'zidan uzoqlashtirishi lozim;

- o'quvchi mutolaa qilayotgan asarni chuqur o'rgansin, o'zlashtirsin;

- o'qituvchi o'quvchidan biror masalani so'rasa, o'quvchi darhol o'qituvchi oldiga kelib, salomlashib, odob bilan o'tirsin va o'qituvchi o'rgatgan tarzda masalani oydinlashtiruvchi javob bersin, agar tushunmagan bo'lsa, o'qituvchidan odob bilan so'rab, aniqlab olsin. o'qituvchi tushuntirayotgan vaqtda ularni xotirasida mahkam joylashtirsin;

⁸⁶ Ҳожи Муин. Ёшларга муожаат. Самарқанд газетаси, 1913 йил, 34-сон.

⁸⁷ Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 85.



- o'quvchi o'qituvchi so'ragan masala yuzasidan javob berib, o'zi tushunmaganlarini o'qituvchidan aniqlab olgach, yana o'z o'rniga kelib o'tirsin, mutolaaga mashg'ul bo'lib, takror-takror o'qib, mavzuni mukammal o'zlashtirsin. Agar o'quvchi-talaba aytilganlarga amal qilsa, unda u tez orada o'z maqsadlariga erishadi"⁸⁸.

Yangi o'qitish uslubi afzalliklari haqida shuni ta'kidlash joizki, eski maktablarda toliblar kitoblarni quruq yod olish orqali ta'lim olishib, mazkur kitoblar qay maqsadlarda yozilganligidan amalda bexabar bo'lganlar. Eski maktablardagi o'qish va o'qitish uslubi zamon talablariga javob bermas, shogirdlar 4-5-yil o'qib hatto arab tilini ham yaxshi o'zlashtira olmaganlar. Vaholanki, ta'lim berayotgan mudarrisning ham bilim saviyasi va dunyoqarashi juda past darajada bo'lgan. Fikrimizning dalili sifatida A.Xo'jayevning quyidagi fikrini keltirishimiz mumkin: "Madrasa deb yuritilgan adolatxonalarimizda tarbiya ko'rub mulla bo'lg'on afandilarimizda fikr va idrok shul darajada pastdirki, bu afandilar ila milliy va ijtimoiy mavzulardan so'z gapirmak hozirgi vaqtda imkon xorijidandir"⁸⁹. Davr esa shiddat bilan rivojlanib, asriy qoloqlikdan tezroq chiqib, taraqqiyot sari odimlash lozimligini taqozo etardi. Usuli jadid maktablari zamon talablariga javob berib, unda diniy va dunyoviy bilimlarni qo'shib o'qitilishi, oldinga qo'yilgan yuksak maqsadlarni amalga oshirishdagi dastlabki qadamlardan biri bo'ldi.

Ta'lim instituti rivojining eng keng ko'rsatkichi o'qitish, o'qish va idrok qilish usullarining o'zgarishi hisoblanadi. Birinchidan, maktab ta'limi va oliy ta'lim darajasi o'rtasida, ikkinchidan, oliy ta'lim darajasi va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi o'rtasidagi farqlar mavjud bo'lib, ilmiy bilimlarni joriy etishning yangi shakllarini talab qilmoqda. Shu boisdan ham, jadidlar orasida birinchi bo'lib universitet tashkil etish g'oyasi ilk bor 1892-yilda Ismoilbek Gaspirali tomonidan ilgari surildi. Va ular oliy ta'limning asosi-universitet tashkil etish uchun Toshkent shahar Dumasidan ham foydalandilar. Munavvarqori, Fitrat, Mahmudho'ja Behbudiy, U.Asadullaxo'jayev, I.Ibrat va boshqa jadidlar milliy dunyoviy oliy ta'lim g'oyasini o'z asar va maqolalarida keng targ'ibot-tashviqot qildilar. Shuning bilan bir qatorda oliy ta'limga zamin yaratish uchun, jadid maktablarida dunyoviy ilmlar o'qitildi, xorijga yoshlar o'qishga yuborildi. Oqibatda esa 1918-yil o'rta Osiyo universitetiga asos solindi. Albatta, tartibli ta'limning amaliy natijalari jadid maktablari faoliyatida ko'zga tashlana boshladi. Jumladan, Ishoqxon Ibrat yangicha ta'lim-tarbiya

⁸⁸ Валихўжаев Б. Самарқандда олий таълим-мадрасайи олия-университет тарихидан лавҳалар, 1997. – Б. 10.

⁸⁹ Мулларимизда даражаи фикрия // Садои Туркистон.1914, 55-сон. – Б. 2.



tizimining nihoyatda katta afzalliklarini isbotlashda ko‘proq o‘zi erishgan yutuqlarga, o‘zi amaliyotga tadbiq qilgan yangi usullarga asoslanadi. Bu haqda u quyidagilarni yozadi: “Men o‘zum ham o‘zumga qarashlik o‘nta-o‘n beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduklarina jonim achib, Qozon tarafidan... bir muallim jalb edub, maktab qilib berdim. Maktabning kushodig‘a uch oy bo‘lgani yo‘q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o‘n beshta odamlar “alif nima?” degan savolina “kaltak” deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurgon bo‘ldilar. To‘rt-beshta, yetti va sakkiz sanalar Qo‘qong‘a yurub hech narsa bilmagan mullabachchalar bitamomihi arabiy mukolamag‘a qodir bo‘lub, har bir kitoblarni mutoalaa etadurgon bo‘ldilar. Shul sababdin biz ko‘zumiz ila tajriba qilib, bul o‘qitishga tamom ixlos qildik”⁹⁰.

“Ibrat o‘z maktabiga haftalik dars jadvalini joriy qildiki, bu jadid maktablarining yangi ta‘lim tizimidagi o‘rnini belgilashda asosiy omillardan biri sanalgan. Turkiston o‘lkasining ko‘pgina joylarida har bir yangi usul maktablarining joriy qilinishini milliy matbuot katta quvonch bilan ma‘lum qilib bordi”⁹¹. Bu davrdagi aksariyat nashrlarda XX-asr ma‘rifat, fan va texnika zamoni ekanligi, ilmsiz millatning bu dunyoda yashashi mushkulligi masalalariga asosiy urg‘u berildi va xalqni “Ovruponing ilm va urfonini, hunar va san‘atini tahsil etmak birinchi darajada lozim”⁹²ligi alohida ta‘kidlandi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jadidlar orzu qilgan ozod mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimining milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Haqiqatda, milliy g‘oya, millat tafakkurining eng ilg‘or namunalarini aks ettirgan darslik va qo‘llanmalar tuzish, xorijiy tillarni mukammal bilish, kasb-hunar o‘rgatishni joriy etish kabi tamoyillar o‘z davrida jadidchilik vakillarini o‘ylantirgan va ularning bu yo‘ldagi bevosita sa‘y-harkatlari faoliyatimizning zamonaviy intellektual taraqqiyoti poydevoriga zamin yaratishga xizmat qildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 199.

⁹⁰ Долимов У. Исоҳқон Ибрат. – Тошкент, 1994. (Истиқлол фидойилари сериясидан). – Б. 54.

⁹¹ Янги мактаб//Ойна.1914 йил 27 июль; Янги мактаблар//Самарқанд. 1913 йил 2 август; Дизаҳда мактаб// Ойна. 1914 йил 1 ноябрь; Ҳўқандда усули савтия муаллимлари // Ойна. 1914 йил 1 ноябрь; Яҳё Қори. Шаҳрихонда усули жадид мактаблари // Садои Фаргона. 1914 йил 10 май ваб.

⁹² Мирзозода М. Илм ва маориф // Садои Туркистон. 1914 йил 18 июль.



2. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Г.Ғулом, 2009. – Б. 114-115.
3. Наливкин В.П. Школа у туземцев Средней Азии. Речь, произнесенная на годовичном акте Туркестанской Учительской Семинарии 31 мая 1889 г. – Тошкент, 1889 // Туркестанский сборник. Т. 418. – С. 39.
4. Остроумов Н.П. Народное образование. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае. – Тошкент, 1889 // Туркестанский сборник. Т. 418. – С. 53.
5. Қодиров Н.Н. Тўркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи (1867-1917 йй.). Монография.
6. Ҳожи Муин. Ёшларга муожаат. Самарқанд газетаси, 1913 йил, 34-сон.
7. Ҳожи Муин. Ёшларга муожаат. Самарқанд газетаси, 1913 йил, 34-сон.
8. Ҳожи Муин. Ёшларга муожаат. Самарқанд газетаси, 1913 йил, 34-сон.
9. Долимов У. Туркистонда жаид мактаблари. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 85.
10. Валихўжаев Б. Самарқандда олий таълим-мадрасайи олия-университет тарихидан лавҳалар, 1997. – Б. 10.
11. Муллаларимизда даражаи фикрия // Садои Туркистон. 1914, 55-сон. – Б. 2.
12. Долимов У. Исҳоқхон Иброт. – Тошкент, 1994. (Истиқлол фидойилари сериясидан). – Б. 54.
13. Янги мактаб//Ойна. 1914 йил 27 июль; Янги мактаблар//Самарқанд. 1913 йил 2 август; Дизаҳда мактаб// Ойна. 1914 йил 1 ноябрь; Хўқандда усули савтия муаллимлари // Ойна. 1914 йил 1 ноябрь; Яхё Қори. Шаҳрихонда усули жаид мактаблари // Садои Фаргона. 1914 йил 10 май ваб.
14. Мирзозода М. Илм ва маориф // Садои Туркистон. 1914 йил 18 июль.